

**PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR, PROFESSIONAL TA'LIM
BOSHQARUV HAMDA PEDAGOG KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH
VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/30.12.2019.PED.48.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR, PROFESSIONAL TA'LIM
BOSHQARUV HAMDA PEDAGOG KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH
VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

KARIMOVA NOZIMA NURMUXAMADOVNA

**PARADIGMAL YONDASHUV ASOSIDA PROFESSIONAL TA'LIM
PEDAGOG KADRLARINI KASBIY-PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI
UZLUKSIZ RIVOJLANTIRISH**

13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi

**Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Pedagogika fanlari doktori (DSc)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора педагогических наук (DSc)**

**Contents of dissertation
of the Doctor of Pedagogical Sciences (DSc)**

Karimova Nozima Nurmuxamadovna

Paradigmatal yondashuv asosida professional ta'lim pedagog kadrlarini kasbiy-pedagogik kompetentligini uzluksiz rivojlantirish 3

Каримова Нозима Нурмухамедовна

Непрерывное развитие профессионально-педагогической компетентности педагогов профессионального образования на основе парадигмального подхода 33

Karimova Nozima Nurmukhamadovna

Continuous development of professional-pedagogical competence of professional education pedagogues based on paradigmatic approach 67

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 73

**PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR, PROFESSIONAL TA'LIM
BOSHQARUV HAMDA PEDAGOG KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH
VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/30.12.2019.PED.48.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**PEDAGOGIK INNOTVASIYALAR, PROFESSIONAL TA'LIM
BOSHQARUV HAMDA PEDAGOG KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH
VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

KARIMOVA NOZIMA NURMUXAMADOVNA

**PARADIGMAL YONDASHUV ASOSIDA PROFESSIONAL TA'LIM
PEDAGOG KADRLARINI KASBIY-PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI
UZLUKSIZ RIVOJLANTIRISH**

13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi

**Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.DSc/Ped262 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Pedagogik innovatsiyalar, professional ta'lim boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.ipitvet.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Muslimov Narzulla Alixanovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Olimov Qahramon Tanzilovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Mardonov Shukurullo Qo'ldashevich
pedagogika fanlari doktori, professor

Mamatov Dilmurad Narmuratovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

**"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini
mexanizatsiyalash muhandislari instituti"
Milliy tadqiqot universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Pedagogik innovatsiyalar, professional ta'lim boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Ped48.01-raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil "___" ___ soat ___dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Chimboy-2, 96-uy. Tel.: (71) 227 19 24, E-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Pedagogik innovatsiyalar, professional ta'lim boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Chimboy-2, 96-uy. Tel.: (71) 227 19 24).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "___" _____ kuni tarqatildi.
(2023 yil _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi)

R.X.Djurayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, p.f.d., professor, akademik

S.Yu.Ashurova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, p.f.n., professor

H.Sh.Qodirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, p.f.d (DSc), dotsent

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoni idrok etish va talqin qilishning yangi usullari, madaniy, ijtimoiy jarayonlarning tez o'zgaruvchanligi, texnologiya, raqamlashtirish, hayotning ko'plab sohalarini robotlashtirish, zamonaviy ijtimoiy sharoit va o'zgarishlar ta'lim tizimi oldiga yangi paradigmalarni joriy qilish, zamonaviy ta'lim tendensiyalariga mos ravishda ta'lim sifatini takomillashtirib borish vazifalarini qo'yadi. Kattalar ta'limining rivojlanishiga YUNESKOning ta'lim bo'yicha xalqaro komissiyasi tomonidan hayot davomida uzluksiz ta'lim olishning asosiy tamoyillari, ya'ni "anglashni o'rganing", "amalga oshirishni o'rganing", "birgalikda yashashni o'rganing", "yashashni o'rganing" kabi tamoyillarning kiritilishi asos bo'ldi. Bunda ta'lim sifatini ta'minlashda yangicha yondashuvlarga, yangi ta'lim dasturlarini yaratishga, ta'lim-tarbiyaning yangi shakllarini tatbiq etishga yo'naltirilgan ta'lim siyosatini va paradigmasini, hozirgi kunga qadar mavjud bo'lgan konsepsiyasini o'zgartirish zaruriyati tug'ildi. Shu bois YUNESKO tomonidan ta'lim xizmatlarini tashkil etishning turli darajalarini aks ettiruvchi rasmiy, norasmiy va informal ta'lim shakllari kiritildi. Endilikda hayot davomida uzluksiz ta'lim olishda individual ta'lim olish traektoriyasini loyihalash, kasbiy rivojlanish va malaka oshirishda ta'limning jozibadorligini ta'minlashda rasmiy, norasmiy va informal ta'limning didaktik imkoniyatlaridan foydalanishni pedagogik jihatdan asoslash talab etiladi.

Jahon miqyosidagi ta'lim sifatiga qo'yilayotgan talablardan biri – XXI asr pedagogikasini yangi paradigmalar hamda raqamli ta'lim transformatsiyasi asosida takomillashtirish zaruratini keltirib chiqardi. Chuqur kasbiy bilim, undan unumli foydalanish ko'nikmalari, shaxsiy tashabbuskorlik, ijodkorlik, mustaqillik har doim pedagog faoliyatini alohida ajratib turgan bo'lsa, XXI asr pedagogi uzluksiz ta'lim olish, o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini takomillashtirish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim. Finlyandiyada Kattalar Ta'limi Tashkiloti, Fransiyada "tajriba orqali olingan bilimlarni tasdiqlash" (Validation des Aquis de l'Expérience (VAE)) tushunchasining kiritilishi natijasida norasmiy va informal ta'limning me'yoriy-huquqiy bazasi yaratildi. Germaniyada "Weiterbildungspass" (Uzluksiz ta'lim pasporti) va "Lernkultur Kompetenzentwicklung" (Kompetensiyalarni rivojlantirishda ta'lim madaniyati) joriy qilingan, Rossiyada "Lifelong Learning" (hayot davomida o'rganish) g'oyasi malaka oshirish kurslari, qo'shimcha va to'ldiruvchi ta'lim dasturlariga tatbiq etilgan. Professional ta'limda pedagog kadrlar malakasini uzluksiz oshirib borishni takomillashtirishga oid tadqiqotlarni olib borish zaruriyatini tug'ilishiga jamiyatning kasbiy kompetentlikka ega mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoji (jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi), XXI asr pedagogikasida paradigmalarni o'zgartirish uchun paydo bo'lgan ijtimoiy-pedagogik asoslar, doimiy o'zgaruvchan kasbiy standartlar to'plamining mavjudligi, XXI asr pedagogikasida didaktikadagi innovatsion o'zgarishlar zarurati bilan pedagogik nazariya va amaliyotda ushbu yo'nalishning yetarlicha ishlab chiqilmaganligi asos bo'ladi.

Mamlakatimizda yangi professional ta'lim tizimi uchun pedagoglarni tayyorlashning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari va axborot-metodik

imkoniyatlari kengaytirilmoqda. Shuningdek, “Hayot davomida ta’lim olish” tamoyili asosida pedagog kadrlarning uzluksiz malakasini oshirish, ta’limning maqsadi, vazifalari, mazmunidan kelib chiqqan holda o‘quv jarayonini tashkil qilish, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va uzluksiz malakasini oshirish uchun ta’lim dasturlarini innovatsion yondashuvlar asosida doimiy yangilab borish masalalariga e’tibor qaratildi¹. Shu nuqtai nazardan, professional ta’lim pedagog kadrlarining kasbiy-pedagogik kompetentligini uzluksiz rivojlantirishda rasmiy, norasmiy ta’lim shakllarini qo‘llashning didaktik imkoniyatlarini va o‘quv-uslubiy ta’minotini paradigmal yondashuvlar asosida takomillashtirish dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli, 2019 yil 6 sentyabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-sonli Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 15 maydagi “O‘zbekiston Respublikasida kasbiy malakalar, bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to‘g‘risida”gi 287-sonli, 2021 yil 26 fevraldagi “Professional ta’lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 106-sonli Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovation g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Hayot davomida uzluksiz ta’lim olish, kattalar ta’limi hamda pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishni takomillashtirish bilan bog‘liq izlanishlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va ta’lim muassasalarida, jumladan, UNESCO Institute for Lifelong Learning, European Association for the Education of Adults – EAEA, European Society for Research on the Education of Adults – ESREA, The Asia South Pacific Association for Basic and Adult Education – ASPBAE, American

¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 26 fevraldagi “Professional ta’lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 106 - son Qarori. <https://lex.uz/docs/-5309472>

² Dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi: <https://www.ox.ac.uk>; <https://london.ac.uk>; <https://www.utexas.edu>; Chartered and Recognized by the Government of NWFP and Government of Sindh <http://www.preston.edu.pk>; University of Munich, Ludwig Maximilians Universität München https://www.unipage.net/ru/university_of_munich; The journal is registered in Germany <http://www.eesj.ru>; <https://smapse.ru/nagoya-university>; <http://ksue.org.ua/uk/pereyaslav-hmelnitskiy-gosudarstvennyy-pedagogicheskiy-universitet-imeni-grigoriya-skovorodiyi>; <https://www.rsvpu.ru>; <https://www.kaznpu.kz/ru>; International Conferences on Adult Education (CONFINTEA) <https://uil.unesco.org/adult-education/confintea>; <https://www.uni-heidelberg>.

Association for Adult and Continuing Education – AAACE (AQSh), International Society for Comparative Adult Education – ISCAE, University of British Columbia (Kanada), Germaniya Xalq Universitetlari assotsiyatsiyasi xalqaro hamkorlik instituti (DVV International), University of Sheffield (Angliya), HELP University (Malayziya), Malaka oshirish va kasbiy qayta tayyorlash akademiyasi (Rossiya), Pedagogik innovatsiyalar instituti (O‘zbekiston) da olib borilmoqda.

Angliya, AQSh, Finlyandiya, Germaniya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini modernizatsiyalash borasida katta ishlar olib borilmoqda. Ularda qo‘llanilayotgan zamonaviy o‘qitish texnologiyalari (o‘qitishning tyutorlik tizimi, o‘qitishni ixtisoslashtirish, individual ta‘lim, o‘zaro o‘qitish yoki o‘zaro maslahat, korporativ ta‘lim) professional ta‘lim pedagoglarini intellektual va psixoemotsional rivojlanishini, ijodiy o‘sishi, har tomonlama individual yuksalishini ta‘minlamoqda. “Ochiq ta‘lim” imkoniyatlaridan ijodkor, komandada ishlash qobiliyatiga ega, ma‘naviy va global aspektlarda faol shaxsni shakllantirishda unumli foydalanilmoqda.

Bugungi kunda jahonda uzluksiz ta‘lim olish hamda kasbiy kompetentlikni muttasil rivojlantirish imkoniyatlarini yaratish yuzasidan quyidagi: uzluksiz ta‘lim olishda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning zamonaviy paradigmalarni tatbiq etish, uzluksiz ta‘lim olish jarayonini loyihalashtirishga asoslangan yangi nazariy konsepsiyalarni ishlab chiqish; kasbiy kompetentlikni uzluksiz rivojlantirish modellarini takomillashtirish; uzluksiz ta‘lim olish jarayonini tashkil etish metodikasini takomillashtirish; o‘qitishning raqamli texnologiyalarini yaratish nazariyasi va texnologiyasini yangi ilmiy-pedagogik yondashuvlar asosida takomillashtirish; kasbiy kompetentlikni baholash metodikasini ishlab chiqish; rasmiy, norasmiy, informal ta‘limda professional ta‘lim pedagoglarining kasbiy kompetentligini shakllantirish yo‘nalishlarida ustuvor tadqiqotlar olib borilmoqda; shuningdek, mediatexnologiyalar va tyutorlik tizimini joriy etish orqali professional ta‘lim pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmi ishlab chiqilgan (Technology and methodology of vocational education), professional ta‘lim pedagoglari va o‘quv ustalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan ta‘lim paradigmalari ishlab chiqilgan (Rossiya).

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Professional ta‘limning shakllanishi va rivojlanish jarayoni, qonuniyatlari va tendensiyalari, ta‘limga paradigmalarni o‘zgaruvchanligi hamda kasbiy-pedagogik kompetentlikni shakllantirish muammolari R.X.Djuraev, Sh.E.Qurbonov, A.R.Xodjaboev, N.A.Muslimov, U.I.Inoyatov, Z.K.Ismailova, Q.T.Olimov, Sh.S.Sharipov, M.B.Urazova, J.A.Xamidov, O.X.To‘raqulov, D.O.Ximmataliev, O.A.Qo‘ysinov, N.N.Musaeva, H.Sh.Kadirov, R.K.Choriev, Z.T.Raximov, B.B.Ergashev³ va boshqa pedagog

³ Джурев Р.Х. Организационно-педагогические основы интенсификации системы профессиональной подготовки в учебных заведениях профессионального образования: Автореф. Дис. ... д-ра пед. наук. – СПб., 1995. – 43 с.; Курбанов Ш.Э. Социально-педагогические особенности национальной модели и программы по подготовке кадров: Дис. ... д-ра пед. наук. – Т., 2000. – 527 с.; Ходжабоев А.Р., Хусанов И. Professional ta‘lim metodologiyasi. – Т.: Fan va texnologiya, 2007. – 192 b.; Иноят У.И. Теоретические и организационно-методические основы управления контроля качества образования в профессиональном колледже: Дис. ... д-

olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Respublikamizda professional ta'limda malaka oshirish tizimining rivojlanish tavsifi, tamoyillari, tashkiliy metodik shart-sharoitlari, pedagogik-psixologik jihatlarini M.O'.Dehqonova, G.V.Eldasheva, K.A.Karimov, D.A.Mustafoeva, B.S.Nuridinov, Sh.X.Pozilova, S.F.Rajabova, D.M.Sayfurov, K.T.Umatalieva, A.A.Shayusupova, Sh.S.Sharipova, N.B.Xusanov va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Xorijiy olimlaridan S.G.Vershlovskiy, O.O.Jebrovskaya, I.A.Juk, D.F.Ilyasov va boshqalarning ilmiy ishlarida e'tibor qaratilgan⁴.

Professional ta'lim pedagoglarining kasbiy-pedagogik kompetentligini shakllantirish, rivojlantirish va diagnostika qilish masalalari respublikamiz olimlari N.A.Muslimov, M.T.Mirsolieva, B.A.Nazarova, Sh.S.Sharipov, M.B.Urazova, O.A.Quysinov va boshqalar, xorijiy mamlakatlarda N.A.Grishina, E.F.Zeer, I.A.Zimnyaya, Dj.Raven, V.A.Sitarov va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan⁵.

Xorijiy olimlardan B.M.Bim-Bad, T.A.Vasilkova, S.I.Zmeyov, M.Sh.Noulz, L.I.Sokolova, I.A.Kolesnikova, M.Hayden andragogikaning pedagogikadan farqlarini aniqlashga harakat qildilar. Shuningdek, andragogikaning alohida fan sifatida shakllanishida o'z hissalarini qo'shganlar⁶. R.Dave, Ch.Kenyon, A.S.Sargsyan, S.Hase⁷ evtagogikaning mazmuni va mohiyatini ochib berganlar.

Uzluksiz kasbiy rivojlanish, uzluksiz ta'lim olish kontekstida norasmiy ta'lim konsepsiyalarini o'rganish bo'yicha C.G.Vershlovskiy, R.Dave, O.V.Roybalt, N.N.Ryadavoy, A.S.Sargsyan, S.Hase kabi olimlar ilmiy izlanishlarni olib

ра пед. наук. – Т., 2003. – 327 с.; Ismailova Z.K. Talabalarning kasbiy pedagogik malakalarini shakllantirish: Ped. fanl. nomz. ... Dis. – Т., 2000. – 153 b.; Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fanl. d-ri ... Dis. – Т., 2007. – 249 b., Olimov Q.T. Maxsus fanlardan o'quv adabiyotlarini yaratishning nazariy va uslubiy asoslari: Ped. fanl. d-ri ... Dis. – Т., 2005. – 274 b.; Urazova M.B. Bo'lajak professional ta'lim pedagogini loyihalash faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish: Ped. fanl. D-ri ... dis. Avtoref. – Т., 2015. – 21 b.; Qo'ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari: Ped. fanl. d-ri (DSc) ... dis. Avtoref. – Т., 2019. – 70 b. va boshq.

⁴ Nuridinov B.S. Kasb ta'limi o'qituvchilari malakasini oshirishda faol o'qitish metodlaridan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari: Ped. fanl. nomz. ... Dis. – Т., 2002. – 133 b.; Dehqonova M.O'. Kasb-hunar ta'limi rahbar xodimlari malakasini oshirish jarayoniga tizimli yondashuv: Ped. fanl. nomz. ... Dis. – Т., 2005. – 150 b.; Yeldasheva G.V. Masofaviy ta'lim orqali maxsus fan o'qituvchilari malakasini oshirishning o'quv-uslubiy ta'minotini yaratish: Ped. fanl. nomz. ... Dis. – Т., 2011. – 151 b.; Pozilova Sh.X. Oliy ta'lim muassasasi o'qituvchilarini malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida kreativ o'qitish metodikasi: P.f.f.d. (PhD) ... dis. Avtoref. – TATU, 2019. – 53 b.; Rajabova S.F. Kasb-hunar kolleji o'qituvchisining kasbiy mahoratini oshirishning tashkiliy-pedagogik asoslari (malaka oshirish jarayonida): Ped. fanl. nomz. ... Dis. – Т., 2003. – 176 b. va boshq.

⁵ Mirsolieva M.T. Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: Ped. fan. d-pi (DSc) ... Dis. – Т.: BIMM, 2019. – 225 b.; Nazarova B.A. Pedagogika kollejlari bo'lg'usi o'qituvchilarining kasbiy layoqatini tarbiyalash: Ped. fanl. nomz. ... Dis. – Т.: TDPU, 2009. – 144 b. va boshq.

⁶ Bim-Bad B.M., Sokolova L.I., Zmeyov S.I. Russia. Perspectives on Adult Education and Training in Europe. – Leicester, NIACE, 1992.; Василькова Т.А. Основы андрагогики. – М.: КноРус, 2011; Змеёв С.И. Андрагогика: основы теории, истории и технологии обучения взрослых. – М.: ПЕР СЭ, 2007; Hayden M. Professional development of educators: the International education context. The SAGE Handbook of Research in International Education. 2007. SAGE Publications. – P. 4-7, Колесникова И.А. Основы андрагогики. – М.: Академия, 2007. С. 12-14.

⁷ Hase S., Kenyon Ch. (2001). From andragogy to heutagogy. Lismore, Australia: Southern Cross University, Dave R. On learning strategies for lifelong education. In Reflections on Lifelong Education And the School. Hamburg., Саргсян А.С. Принципы и особенности развития эвтагогики как области педагогической науки // Академический вестник Института педагогического образования и образования взрослых РАО, 2014. – С 111-116.

borganlar⁸.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Pedagogik innovatsiyalar instituti hamda Nemis Xalq Universitetlari assotsiatsiyasi (DVV) Filialining № 09/08-22-BMZ “O‘zbekiston Respublikasi kasb-hunar ta’limi tizimidagi xodimlar malakasini oshirish tizimini rivojlantirishga ko‘maklashish” (2022-2023 yy.) halqaro loyihasi hamda № AIF-2/20 “Shaxsga yo‘naltirilgan innovatsion texnologiyalar asosida texnik yo‘nalishlar bo‘yicha malakali muhandis kadrlar tayyorlash va o‘qituvchilar malakasini oshirish sifatini oshirish” (2019-2020 yy.) mavzusidagi grant loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi paradigmal yondashuv asosida professional ta'lim pedagog kadrlarining kasbiy-pedagogik kompetentligini uzluksiz rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

professional ta'lim tizimida uzluksiz kasbiy rivojlanishning zamonaviy paradigmalari mazmunini takomillashtirishda pedagogika-andragogika-evtagogikaning o‘zaro uzviyligi-uyg‘unligi hamda malaka oshirishning rasmiy, norasmiy, informal shakllarini o‘zaro integratsiyalashda pedagogning kasbiy-pedagogik kompetentligini uzluksiz rivojlantirishning relevantligi asoslash;

raqamli ta'lim sharoitida pedagogning zaruriy bilim va ko‘nikmalarini aniqlash, xorijiy tajribalar asosida professional ta'lim pedagogining kasbiy standarti mazmunini o‘rganish, pedagogning kasbiy funksiyalarini tizimlashtirish orqali pedagogning kasbiy standartida belgilangan kasbiy funksional komponentlar tarkibini ishlab chiqish;

malaka oshirish jarayonining raqamli ta'lim transformatsiyasida SMART didaktik talablarni hamda pedagogning kasbiy-pedagogik kompetentligi klasteri komponentlari tuzilmasini ishlab chiqish, rasmiy va norasmiy ta'limda foydalaniladigan innovatsion metodlarni klassifikatsiyalash asosida pedagogning kasbiy-pedagogik kompetentligini uzluksiz rivojlantirish modelini takomillashtirish;

pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini pedagogni kasbiy rivojlanishiga imkon beruvchi norasmiy va informal ta'lim shakllarida ehtiyojga asoslangan kurslarni loyihalash, uzluksiz malaka oshirishning mustaqil va muqobil innovatsion shakllarini joriy etish asosida takomillashtirish;

professional ta'lim tizimi pedagogning kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlanganligini aniqlash mezonlari, darajalarini aniqlashtirish, pedagogning kasbiy-pedagogik kompetentligini diagnostika qilishga qaratilgan mobil didaktik resurslar hamda uslubiy ta'minotni ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti rasmiy, norasmiy va informal shakllar integratsiyasi asosida professional ta'lim pedagog kadrlarining malaka oshirish jarayoni.

Tadqiqotning predmeti professional ta'lim pedagog kadrlarining kasbiy-

⁸ Вершловский С.Г. Взрослый как субъект образования // Педагогика. –2003. –№8. – С. 3–8., Рядовой Н.Н. Непрерывное профессиональное образование как фактор инновационного развития производства: автореф. дис. канд. экон. наук. –М., 2011. – 24 с., Ройтблат О.В. Неформальное образование педагогических работников: вчера, сегодня, завтра: монография. – Т., 2014. - 226 с.

pedagogik kompetentligini uzluksiz rivojlantirish mazmuni, shakli, metodi va vositalari.

Tadqiqotning usullari: maqsadga erishish va qo'yilgan vazifalarni hal qilishda quyidagi metodlar majmuidan foydalanildi: psixologik-pedagogik hodisalarning tizimli va empirik tahlili, pedagogik jarayonni modellashtirish, pedagogik jarayonni loyihalash vazifalarini konkretlashtirish hamda ularni hal qilish usulini belgilash, kuzatish, tajriba-sinov, suhbat, tashhislash, so'rovnoma, natijalarni o'rganish, natijalarni matematik va statistik qayta ishlash.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

professional ta'lim tizimida uzluksiz ta'lim olish va muttasil kasbiy rivojlanishning innovatsion, kompetensiyaviy, akmeologik, shaxsga yo'naltirilgan paradigmalari evtagogika fanining mazmuni, predmeti, vazifalari, pedagogika-andragogika-evtagogikaning o'zaro uzviyligi-uyg'unligi hamda malaka oshirishning rasmiy, norasmiy, informal shakllarini o'zaro integratsiyalashda pedagogning kasbiy-pedagogik kompetentligini uzluksiz rivojlantirishning relevantligi asoslash orqali mazmunan takomillashtirilgan;

raqamli ta'lim sharoitida pedagogning zaruriy bilim va ko'nikmalarini aniqlash, kasbiy faoliyatni amalga oshirishga imkon beradigan bilim va kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan individual ta'lim olish traektoriyasini loyihalash ko'nikmasini shakllantirish uzluksiz kasbiy rivojlanishning samarali usuli ekanligini asoslash orqali professional ta'lim pedagogining kasbiy standartida belgilangan kasbiy funksional komponentlari tarkibi ishlab chiqilgan;

malaka oshirish jarayonining raqamli ta'lim transformatsiyasida SMART didaktik talablarni hamda mustaqil ta'lim olishda o'z-o'zini boshqarish, takomillashtirish, o'z-o'zini tahlil qila olish, baholay olish imkoniyatlarini o'zaro muvofiqlashtirish hamda pedagogning kasbiy-pedagogik kompetentligi klasteri komponentlari (soft skills, hard skills, self skills) tuzilmasini ishlab chiqish, rasmiy va norasmiy ta'limda foydalaniladigan innovatsion metodlarni klassifikatsiyalash asosida pedagogning kasbiy-pedagogik kompetentligini uzluksiz rivojlantirish modeli takomillashtirilgan;

pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi uzluksiz kasbiy rivojlantirish strategiyasi sharoitida pedagogni kasbiy rivojlanishiga yuqori darajada imkon beruvchi norasmiy va informal ta'lim shakllarida ehtiyojga asoslangan kurslarni loyihalash, uzluksiz malaka oshirishning mustaqil va muqobil innovatsion shakllarini joriy etish hamda "EduScrum", "Korporativ ta'lim" va "Trening", "Master klass" innovatsion ta'lim texnologiyalariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

professional ta'lim tizimi pedagogining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlanganligini aniqlash mezonlari (motivatsion-qadriyatli, intellektual-refleksiv, kasbiy faoliyatda o'z-o'zini rivojlantirish), darajalarini (yuqori, o'rta va past) aniqlashtirish orqali pedagogik kvalimetriyada ko'p mezonli baholash usullari, o'zini-o'zi diagnostika qilishga qaratilgan mobil didaktik resurslar hamda uslubiy ta'minot ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish”, “Rahbarning “soft skills” kompetensiyalarini rivojlantirish”, “Boshqaruv kadrlarning kasbiy kompetensiyalari, ularni baholash va uzluksiz rivojlantirish” modullari o‘quv dasturi va o‘qitish materiallari, baholashning uslubiy ta‘minoti ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi va sinovdan o‘tkazildi.

Professional ta‘lim muassasalari pedagoglari uchun “Pedagog kadrlarning kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish” kursi dasturi ishlab chiqildi. Mazkur kursning o‘quv qo‘llanmasi, o‘qitish materiallari, baholash materiallari ishlab chiqilib, uzluksiz malaka oshirish jarayoniga tatbiq etildi.

Shu bilan birga, tajriba-sinov ishlarini olib borishda metodik ta‘minot sifatida ishlab chiqilgan “Professional ta‘lim jarayonida kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish” metodik qo‘llanma, “Kompetensiyalarni baholash usullari va baholash materiallarini tayyorlash metodikasi” uslubiy qo‘llanma, “Uzluksiz professional ta‘limda qisqa muddatli kurslarni tashkil etish metodikasi” uslubiy qo‘llanma, “Kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish, pedagogning kasbiy standarti” o‘quv qo‘llanma (356-042-raqamli guvohnoma), “Pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish dasturi” (14093-raqamli guvohnoma), “Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish” elektron qo‘llanma (003190-raqamli guvohnoma), “Ta‘lim natijalariga mo‘ljallangan o‘quv jarayonini tashkil etish” elektron qo‘llanma (003191-raqamli guvohnoma), “Rahbarning “soft skills” kompetensiyalarini rivojlantirish” SMART didaktik ta‘minot (005073-raqamli guvohnoma), “Pedagog kadrlarning kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish” kursi bo‘yicha SMART didaktik ta‘minot (005072-raqamli guvohnoma) malaka oshirish jarayoniga tatbiq qilindi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Qo‘llanilgan paradigmalar, andragogik, evtagogik, klasterli yondashuvlar, metodlar, vositalar, nazariy ma‘lumotlar yurtimiz va xorijiy olimlarning tadqiqot natijalari, normativ hamda rasmiy manbalardan olinganligi, shuningdek, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar yordamida asoslanganligi, olingan natijalarni amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati XXI asrda kattalar ta‘limida uzluksiz ta‘lim olish va kasbiy rivojlanish paradigmalarini mazmunan yangilanishi, pedagogika-androgogika-evtagogikaning yangi ta‘lim paradigmasida o‘zaro bog‘liqligi; “Evtagogika” tushunchasining mazmuni ilmiy tahlillar asosida ochib berilganligi, evtagogikaning yangi paradigma sifatida ta‘limga kirib kelishi, nazariyasi, metodologiyasi, xususiyatlarining asoslanganligi; professional ta‘limga raqamli ta‘limni kiritilishi va “SMART didaktika” tamoyillarini asoslab berilganligi, professional ta‘lim pedagogning kasbiy standarti mohiyati ochib berilganligi, pedagogning kasbiy standarti mazmuni va uni ishlab chiqish talablari belgilanganligi, nazariy yondashuvlar bilan boyitilganligi; pedagogning kasbiy-pedagogik kompetentligi darajasini baholashda ko‘p mezonli baholash texnologiyasi; tadqiqot muammosining ijobiy yechimini ta‘minlovchi ilmiy yondashuvlarning ilgari

surilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati uzluksiz malaka oshirish jarayonida tavsiya etilayotgan metodikalar malaka oshirish jarayonini modernizatsiyalash, pedagoglarni kasbiy-pedagogik faoliyatini takomillashtirishda norasmiy va informal ta'lim shakllarini qo'llash orqali professional ta'lim pedagogining kasbiy-pedagogik kompetentligini uzluksiz rivojlantirish metodikasini hamda o'quv-uslubiy ta'minotini takomillashtirishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Paradigmal yondashuv asosida professional ta'lim pedagoglarini kasbiy-pedagogik kompetentligini uzluksiz rivojlantirishga oid tadqiqot natijalari asosida:

professional ta'limda uzluksiz ta'lim olish va kasbiy rivojlanishning innovatsion, kompetensiyaviy, akmeologik, shaxsga yo'naltirilgan paradigmalarini kiritish hamda malaka oshirishning rasmiy, norasmiy, informal shakllarini o'zaro integratsiyalashda pedagogning kasbiy-pedagogik kompetentligini uzluksiz rivojlantirishning relevantligini oshirishga oid takliflardan Pedagogik innovatsiyalar instituti hamda Nemis Xalq Universitetlari assotsiatsiyasi (DVV) Filialining № 09/08-22-BMZ "O'zbekiston Respublikasi kasb-hunar ta'limi tizimidagi xodimlar malakasini oshirish tizimini rivojlantirishga ko'maklashish" mavzusidagi grant loyahasini bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 21 dekabrda 89-05-189-son ma'lumotnomasi). Natijada, pedagog kadrlarini uzluksiz malakasini oshirishda rasmiy, norasmiy, informal ta'limning ahamiyati asoslab berilgan;

raqamli ta'lim sharoitida pedagogning zaruriy bilim va ko'nikmalarini aniqlash, kasbiy faoliyatni amalga oshirishga imkon beradigan bilim va kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan individual ta'lim olish traektoriyasini loyihalash ko'nikmasini shakllantirish, professional ta'lim pedagogining kasbiy standartida belgilangan kasbiy funksiyalar tarkibini tuzishga oid ilmiy xulosalardan "Professional ta'lim o'qituvchisining kasbiy standarti"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 21 dekabrda 89-05-189-son ma'lumotnomasi). Natijada, pedagogning kasbiy funksiyalarini e'tiborga olgan holda ehtiyojga asoslangan kurslarni ishlab chiqish talablari va loyihalash bosqichlari ishlab chiqilgan;

pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, norasmiy va informal ta'lim shakllarini tashkil etishda ehtiyojga asoslangan kurslarni loyihalash, malaka oshirishning mustaqil va muqobil shakllarini kiritish hamda "EduScrum", "Korporativ ta'lim", "Trening", "Master klass" texnologiyalarini qo'llashga qaratilgan metodik ishlanmalari asosida "Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish", "Rahbarning "soft skills" kompetensiyalarini rivojlantirish" modullari uslubiy ta'minoti, "Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish", "Ta'lim natijalariga mo'ljallangan o'quv jarayonini tashkil etish" elektron qo'llanmalar, "Rahbarning "soft skills" kompetensiyalarini rivojlantirish" smart didaktik vositalar ishlab chiqilib amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 21 dekabrda 89-05-189-son ma'lumotnomasi). Natijada, malaka oshirish kurslarida o'quv modullarini o'qitishning didaktik va metodik ta'minoti takomillashtirilgan;

malaka oshirish jarayonining raqamli ta'lim transformatsiyasida SMART didaktik talablarni hamda mustaqil ta'lim olishda o'z-o'zini boshqarish, takomillashtirish, o'z-o'zini tahlil qila olish, baholay olish imkoniyatlarini oshirishga hamda pedagog kadrlarning kasbiy-pedagogik kompetentligini uzluksiz rivojlantirishga qaratilgan kurslarni yaratish metodikasini takomillashtirishga doir takliflar "Kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish, pedagogning kasbiy standarti" o'quv qo'llanma (№ 356-042 guvohnoma), "Uzluksiz professional ta'limda qisqa muddatli kurslarni tashkil etish metodikasi", "Professional ta'lim jarayonida kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish", "Kompetensiyalarni baholash usullari va baholash materiallarini tayyorlash metodikasi" uslubiy qo'llanmalar, "Pedagog kadrlarning kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi" kursi dasturi, mustaqil ta'lim olishga qaratilgan SMART didaktik taminoti mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 21 dekabrda 89-05-189-son ma'lumotnomasi). Natijada, professional ta'lim pedagoglarining rasmiy va norasmiy ta'lim shaklida malakasini oshirishning didaktik ta'minoti takomillashtirildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 4 ta respublika anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 38 ta ilmiy ishlar, jumladan, 1 ta monografiya, 1 ta o'quv qo'llanma, 3 ta uslubiy qo'llanma, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 17 ta maqola, shu jumladan, 3 ta xorijiy, 14 ta respublika miqyosidagi jurnallarda chop etilgan va Intellektual mulk agentligining 5 ta mualliflik guvohnomalari olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya hajmi 214 betni tashkil etgan, kirish, to'rtta bob, xulosalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi keltirilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekti hamda predmeti shakllantirilgan, tadqiqot usullari hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilingan ishlar, dissertatsiya tuzilishi yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Paradigmalar yondashuv asosida professional ta'lim pedagog kadrlarning kasbiy-pedagogik kompetentligini uzluksiz rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari**", deb nomlangan birinchi bobida XXI asrda kattalar ta'limida uzluksiz ta'lim olish va kasbiy rivojlanish paradigmalarining yangilanishi, zamonaviy ta'limda pedagogning uzluksiz ta'lim olish imkoniyatlarini tahlil qilish va pedagogikada paradigmiallik, pedagogika nazariyasida ta'limni tashkillashtirishning andragogik modelidan so'ng nisbatan

yangi bo'lgan evtagogika tushunchasini paydo bo'lishi, kattalarga uzluksiz ta'lim olish imkonini beruvchi evtagogika fani, evtagogikaning mazmuni, predmeti, vazifalari, pedagogika-andragogika-evtagogikaning o'zaro uzviyligi, XXI asr ta'limida evtagogikani eng yuqori darajadagi ta'lim sifatida e'tirof etuvchi ta'lim paradigmalari, ta'limda pedagogik paradigmalarini yangilanishining ijtimoiy-pedagogik asoslari, ta'limga paradigmal yondashuvning nazariy asoslari o'rganilgan.

Ta'limdagi keskin o'zgarishlar ta'lim paradigmalarining o'zgarishiga ham sabab bo'ldi. Zamonaviy pedagogikaning nazariy-konseptual asoslariga inson va uning ta'lim-tarbiyasiga oid falsafiy, sotsiologik, ontologik bilimlarning kategorial apparati kiritilgani bois pedagogik tushunchalar va tendensiyalarni tasniflash va tizimlashtirishga ehtiyoj yuzaga keldi. Shu munosabat bilan tadqiqotchilar tomonidan pedagogik bilimlarni turli xil pedagogik paradigmalar sharoitida tizimlashtirishga urinishlar amalga oshirildi. Taklif etilayotgan paradigmalar nafaqat pedagogik hodisalarni o'rganish uchun konseptual modellarni ishlab chiqish, balki ular asosida zamonaviy ta'lim modellarini loyihalashga imkon berdi.

Globalashgan dunyo "yangi bilim va kompetensiyalar davri"ga qadam qo'ydi, buning natijasida jamiyat, iqtisodiyot va ijtimoiy hayotda chuqur o'zgarishlar yuz berdi. Kompetensiyalarga asoslangan iqtisodiyot va jamiyatga muvaffaqiyatli o'tish mamlakat taraqqiyoti va ravnaqi uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan "umr davomida ta'lim olish" bilan bevosita bog'liqligi anglashilmoqda⁹.


Tadqiqot ishi doirasida zamonaviy ta'limda professional ta'lim pedagogning uzluksiz ta'lim olish imkoniyatlarini tahlil qilish va uzluksiz ta'lim olish paradigmalarini o'rganishni birinchi darajali vazifa sifatida belgilab oldik. Bunga ko'ra, XXI asr pedagogikasi endilikda professional ta'lim pedagoglarida tafakkurni rivojlantirish, kreativ makon, muhit, kreativ shaxs, kreativ mahsulot yaratishga bo'lgan ehtiyoj asosida ish tutish lozimligini uqtirmoqda. Ta'lim paradigmasi model sifatida boshqariladigan va nafaqat tadqiqot, balki ta'limni rivojlantirishning ushbu bosqichida amaliy muammolarni hal qilish uchun foydalaniladigan modelni aniqlaydigan nazariy va uslubiy shartlarning majmui bo'lgani uchun XXI asrda paradigma almashinuvi masalalarini ko'rib chiqishda paradigmial yondashuvdan foydalanish muhimdir.

XXI asrda paradigma almashinuvi masalalarini ko'rib chiqishda asosan innovasion, kompetensiyaviy, qadriyatli, shaxsga yo'naltirilgan paradigmalarni keltirishimiz joiz (1-rasmga qarang).

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga asoslangan uzluksiz ta'lim konsepsiyasi tegishli ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek, innovatsion ta'lim paradigmalarining asosiy xususiyatlarini o'zgartirish bilan chambarchas bog'liq. Kompetentlilik paradigmasi mutaxassislarining tarqoq bilimlari va ko'nikmalarini emas, balki ularning integratsiyalashgan majmuasini, ya'ni ma'lum bir predmetga tegishli bo'lgan sohada kasbiy funksiyalarini samarali ravishda hal qila olishini nazarda tutadi.

⁹ Nurimbetov R.I., Abduraxmanova G.Q. Raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda uzluksiz ta'lim tizimining o'rni va ahamiyati. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2, 2018.

Shu vaqtgacha professional ta'lim tizimida maqsad sifatida bilim va ko'nikmalarning ma'lum bir to'plami ishtirok etar edi, bu esa malaka tavsiflari bilan qayd qilingan edi. ("bilish kerak...", "Bajara olish kerak..."). Ammo zamonaviy mutaxassis uchun bilimlar va ko'nikmalar yig'indisiga ega bo'lishning o'zigina muhim bo'lmay, balki bu yig'indini amaliy faoliyatda amalga oshirish qobiliyati muhimdir.



1-rasm. Professional ta'lim paradigmalari

Bugungi kunda dunyo mamlakatlarida ta'lim sohasida olib borilayotgan ijtimoiy jarayonlarning tahlilidan kelib chiqqan holda XXI asr ta'limining quyidagi paradigmalari sanab o'tish mumkin:

- Lifelong learning, shaxsiy imkoniyatlarni muttasil rivojlantirish, uzluksiz va hayot davomida ta'lim olish tamoyilining implementatsiyasi (joriy qilinishi);
- insonparvarlashuv, antropotsentrizm (inson manfaatlariga yo'naltirilganlik), inson shaxsga hurmat, shaxs kamoloti, umumjahon ahamiyatga molik muammolarga e'tibor, mutaxassislarning o'z professional faoliyati uchun axloqiy javobgarlik tuyg'usini kuchaytirish masalalari;
- ijodiy potensialni rivojlantirish, kreativ (ijodkor), nostandart fikrlaydigan, fan, texnika va iqtisodda yangi usul va yo'llarni topa oladigan, tashabbus ko'rsatadigan izlanuvchan kadrlarni tayyorlash masalalari;
- demokratlashuv, demokratik jamiyatda yashash ko'nikmalari, siyosiy-huquqiy bilimlar asosida faol fuqarolik pozitsiyasi, dunyoviy ong, inson huquqlariga hurmat tuyg'ularini shakllantirish masalalari;
- fan va ishlab chiqarishning integratsiyasi, zamonaviy ta'lim jarayoni, o'quv dasturlarining mazmunini davlatning innovasion o'zgarishlariga, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlariga monandligini ta'minlash masalalari;
- shaxsning bilim, ko'nikma va malakalarini shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatida amaliy qo'llay olish imkoniyatini oshirish, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, muammolarning yechimini topa olishi, raqobatbardosh bo'lishi uchun ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish masalalari.

Uzluksiz ta'lim olish bugungi global iqtisodiyot sharoitida har bir insonning butun hayoti davomida rivojlanib borishining asosini namoyon etuvchi sifatidagi innovatsion ta'lim modelining eng muhim konsepsiyalaridan biri hisoblanadi.

Kompetentlilik paradigmasi mutaxassislarning tarqoq bilimlari va ko'nikmalarini emas, balki ularning mujassamlashgan majmuasini, ya'ni ma'lum bir predmetga tegishli bo'lgan sohada kasbiy vazifalarini samarali ravishda hal qila olishini nazarda tutadi.

Bugungi kun talablariga javob berish uchun professional ta'lim pedagoglarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish va malakasini oshirish ta'lim tizimida yuz berayotgan muammo va jarayonlarga mos bo'lgan, asoslangan va yetarli darajada ishonchli bo'lgan metodologik bazani tanlash; malaka oshirish tizimining muammolari va ziddiyatlarini ta'lim tizimi rivojlanishining asosiy g'oyalari va tamoyillariga tayangan holda aniq metodologik pozitsiyalarda turib ko'rib chiqish; malaka oshirish tizimining asosiy konseptual rivojlanishi yo'nalishlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirish usullarini belgilash; malaka oshirishda to'ldiruvchi ta'lim va qo'shimcha ta'lim dasturlarini modernizatsiyalash bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqish asosida takomillashtirilmog'i lozim.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda uzluksiz ta'lim borasida bir-biridan farqlanuvchi bir necha nuqtai nazarlarni uchratish mumkin. Ulardan eng ko'p uchraydiganlari: "uzluksiz ta'lim – butun hayot davomida egallaydigan ta'lim", "uzluksiz ta'lim – kattalar uchun ta'lim", "uzluksiz ta'lim – bu uzluksiz kasbiy ta'lim" kabi iboralar qo'llanilsa, jahon pedagogikasida uzluksiz ta'lim bir nechta atamalar bilan izohlanib, ular ichida "davom etuvchi ta'lim", "hayot davomida o'qish", "doimiy o'qish" iboralar keng qo'llaniladi.

Tahlillarning ko'rsatishicha, oxirgi yillarda o'qituvchilar, pedagoglar va tarbiyachilarning kattagina qismi yaxshi tayyorgarlik ko'rmaganligi, ularning bilim va kasb saviyasi pastligi jiddiy muammo bo'lib qolmoqda, professional ta'lim muassasalarida malakali pedagog kadrlarning yetishmasligi sezilmoqda. Ta'lim-tarbiya va o'quv jarayonlarining tarkibini, bosqichlarini bir-biri bilan uzviy bog'lash, ya'ni uzluksiz kasbiy rivojlanishni tashkil etish muammolari mavjud.

Pedagogika fanining rivojlanishi uzluksizdir. Bu jarayon ta'limda yangi-yangi paradigmalarni paydo bo'lishiga, ya'ni pedagogika nazariyasida ta'limni tashkillashtirishning androgogik modelidan so'ng nisbatan yangi bo'lgan evtagogika tushunchasi paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Evtagogika atamasi avstraliyalik mutaxassislar Xazen va Kenon tomonidan tatbiq etildi¹⁰.


Evtagogika – o'z-o'zini tarbiyalashni tashkil etish to'g'risidagi fandır. Kattalar ta'lim metodikasining bu ikki turi – andragogika va evtagogikani farqlay bilish lozim. Masalan, andragogika ta'lim oluvchilar uchun ta'lim berishning eng yaxshi yo'llari va usullarini aniqlashga qaratilgan bo'lsa, evtagogika esa bunga qo'shimcha tarzda ta'lim oluvchilarning o'rganish qobiliyatini, qanday qilib o'rganishni yoki shunchaki mazkur fanni mustaqil ravishda o'rgatishni rivojlantirishni nazarda tutadi.

Shunday qilib, andragogika norasmiy tartibda tuzilmaviy mazmunida amalga oshirishga asoslangan bo'lsa, evtagogika rasmiydan informalgacha bo'lgan barcha ta'lim kontekstlarini qamrab oladi. Evtagogika atamasi grekcha ευρετικός

¹⁰ Hase S., & Kenyon Ch. From Andragogy to Heutagogy. Lismore, Australia: Southern Cross University, 2001.

(euretikos) – evristik yoki aniqlash εὕρημα (eurēma), topishga xizmat qiluvchi – εφευρετικός (epheuretikos) – topqirlik – kashf etuvchi, topuvchi va ἄγω (ago) – shug‘ullanish, kirishni anglatadi. Evtagogika nazariyasi va tegishli amaliyot Deyv konstruktivizmida, Motessori va Kolb tadqiqotlarida amalga oshiriladi¹¹. Tadqiqot ishini olib borishda o‘rganilgan ilmiy nazariyalar asosida evtagogikaning taraqqiyot tendensiyalari tizimlashtirildi (2-rasmga qarang).

“Evtagogika - uzluksiz ta’limning uslubi, u norasmiy ta’lim turiga hamroh bo‘lgan o‘z - o‘zini tarbiyalash jarayonlarida namoyon bo‘ladi. Evtagogiyaning maqsadi – ta’lim oluvchilar o‘z maqsadlarini belgilashlari, o‘rganish yo‘llari, jarayonlarini tanlashlari mumkin bo‘lgan muhitni yaratishdir.




2-rasm. Yangi paradigma sifatida evtagogikaning taraqqiyot tendensiyasi

Dissertatsiyaning **“Professional ta’lim pedagog kadrlarining kasbiy-pedagogik kompetentligi klasteri tuzilmasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida professional ta’lim pedagog kadrlarining kasbiy-pedagogik kompetentligi klasteri mazmuni, kompetensiya klasterlarining eng zaruriy kompetensiyalar to‘plamining tizimlashtirishdagi ahamiyati asoslangan. Mazkur bobda pedagogning kasbiy standartini yaratish jahon amaliyotida pedagogik muammo

¹¹ Dave R. On Learning Strategies for Lifelong Education. In Reflections on Lifelong Education And the School. Hamburg. 2001.

sifatida o'rganilib, bunda pedagogning kasbiy standartini yaratishda xorijiy tajribalar o'rganildi, shuningdek, kasbiy standartlarning ishlab chiqish talablari, kasbiy standartlarni vazifalari va funksiyalari, professional ta'lim pedagogining kasbiy standartini ishlab chiqish algoritmi keltirilgan. Paradigmal yondashuv asosida professional ta'lim pedagogining kasbiy-pedagogik kompetentligini uzluksiz rivojlantirish modeli takomillashtirilib, model konsepsiyasi va g'oyasi ochib berilgan.

Professional ta'limni samarali joriy qilishda pedagog asosiy o'rinni egallaydi. Pedagogdan o'zgarishga tayyorlik, harakatchanlik, nostandart mehnat harakatlarini qabul qila olish qobiliyati, qaror qabul qilishda javobgarlik va mustaqillik kabi muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan xususiyatlar talab etiladi. Pedagoqning ushbu kasbiy sifatlarni egallashida erkin va ijodiy muhit yaratilishi kerak. Biz tomonimizdan yangi va eski kompetensiya modellarini o'rganish bo'yicha tahlillar olib borildi. Professional ta'lim pedagoglarining kasbiy-pedagogik kompetentligi tarkibi umumlashtirilib, professional ta'lim pedagog kadrlarning "kasbiy-pedagogik kompetentligi" klasteri tarkibi ishlab chiqildi (3-rasmga qarang). Mazkur klasterni ishlab chiqishda klasterli yondashuvning mazmuni, kompetensiyalar klasteri mohiyati va kompetensiyalarni klasterli yondashuv asosida tizimlashtirish tartibi o'rganildi.



3-rasm. Professional ta'lim pedagogining kasbiy-pedagogik kompetentligi klasteri

Metodologik yondashuvlarga tayanib aytish mumkinki, kompetensiya klasterlarining funksiyalarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

ma'lum bir davrda ijtimoiy va iqtisodiy talabga ko'ra, mutaxassislar egallashi zarur bo'lgan tayanch va kasbiy kompetensiyalarni ajratish va takomillashtirib borish (chunki kompetensiya talablari doimiy o'zgaruvchan xususiyatga ega);

mutaxassislar egallashi kerak bo'lgan kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni tizimlashtirish;

kompetensiyalar tarkibini aniqlash va shakllantirish;

kasbiy standartlarda kompetensiyalarni belgilash.

Xorijiy tajribalarga ko'ra professional ta'lim pedagoglariga qo'yiladigan malakalar yoki qobiliyatlar Hard skills va Soft skills deb ikkiga ajratiladi.

Hard skills – bu muayyan faoliyatni amalga oshirishdagi malakalardir. Ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish ko'p vaqt va resurslarni talab qiladi.

“Soft skills” – (ijodkorlik, muloqotga kirishish layoqati, jamoada ishlash qobiliyati, qat'iyatlilik, tanqidiy fikrlash va h.k.) shaxsiy fazilat, xislat, qobiliyat sifatida ham talqin etiladi.

O.O.Jebrovskaya “Andragogika: ta'limga kattalarcha munosabat” (“Андрогогика: взрослое отношение к образованию”) deb nomlangan maqolasida eski va yangi ko'nikmalar modelini qiyoslab beradi. Yangi modelga “Self skills” ni kiritadi. Ushbu modelni o'rganish va kiritilgan malakalarni shakllantirish jarayonlarini tahlil qilish asosida biz o'z nuqtai nazarimizni 3-rasm orqali ifodaladik.

Pedagogning tashabbusiga to'sqinlik qiladigan, unga rasmiy talablarni yuklaydigan (masalan, ta'lim dasturlarini tuzish majburiyatini yuklaydigan) malaka tavsiflari va kasbiy yo'riqnomalarning mavjudligi, ta'lim oluvchilar bilan bevosita ishlashdan chalg'itadigan qo'shimcha funksional majburiyatlar aslida pedagogning o'z-o'zini rivojlantirish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu paytgacha uning faoliyatini tartibga solib kelgan eskirgan hujjatlar o'rnini bosishi lozim bo'lgan **pedagogning kasbiy standarti**, birinchi navbatda, pedagogga mustaqillik berish, uning rivojlanishiga yangi turtki berishga mo'ljallangan.

Mamlakatimizda pedagoglarning turli malaka darajalarini hisobga olgan holda pedagogning kasbiy standartini bosqichma-bosqich joriy etish ishlari amalga oshirilmoqda. So'nggi yillarda pedagogik faoliyatda mavjud kasbiy standartlarning mazmunini shakllantirish, rivojlantirish va tanqidiy tahlil qilish tamoyillari pedagog olimlar tomonidan olib boriladigan psixologik, pedagogik tadqiqotlarning asosiy predmeti bo'lib qoldi. Shuningdek, bu muammoni qiyosiy jihatdan o'rganishga e'tibor kuchaytirildi.

Kasbiy standartlarda kompetensiyalarni belgilashda kompetensiyalar klasteri muhim o'rin tutadi, shuningdek pedagogning malakasini oshirishga qo'yiladigan malaka talablari va davlat talablari e'tiborga olinadi (4-rasmga qarang). Shu o'rinda savol tug'iladi, ya'ni pedagogning kasbiy standarti nima uchun kerak?

Standart – o'zgaruvchan dunyoda ta'lim strategiyasini amalga oshirish vositasidir.


Standart – ta'lim sifatini oshirish va ta'limni xalqaro darajaga olib chiqish vositasidir.

Standart – pedagogning kompetentlik darajasini xolisona o‘lchovi.

Standart – ta‘lim muassasalarida pedagog kadrlarni tanlab olish vositasidir.

Standart – xodim va ish beruvchi o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rnatadigan mehnat shartnomasini shakllantirish uchun asosdir.


Kasb standartlari sifatli ta‘lim dasturlari va kasbga o‘qitish dasturlarini shakllantirishga muhim hissa qo‘sha oladi, shuningdek, mutaxassis tayyorlash jarayoniga zamonaviy, samarali ta‘lim texnologiyalarini qo‘llashga yo‘l ochadi. Kasbiy standartlar konseptual ravishda “pedagogning malakasini baholash uchun ob‘ektiv vosita, ta‘lim muassasalarida pedagog kadrlarni tanlash vositasi, mehnat shartnomasini shakllantirish uchun asos, xodim va ish beruvchi o‘rtasidagi munosabatlarni tiklash vositasi”, deb belgilandi.



4-rasm. Kompetensiyalar klasteri bo‘yicha kasbiy standartlarni yaratish

Pedagogning kasbiy standarti qo‘llanilganidan so‘ng pedagoglarni qo‘shimcha kasbiy ta‘lim olish ehtiyojining yuzaga kelishi, tabiiy. Bunda andragogika va evtagogikaning zaruriyati ortib ketadi. Kasbiy standart talablarini ta‘minlashda ta‘lim berishning innovasion usullarini joriy etish, mustaqil ta‘lim olish orqali o‘z-o‘zini rivojlantirishning, o‘z-o‘zini takomillashtirishning innovasion va kreativ shakllarini joriy etish orqali barcha professional ta‘lim ishtirokchilari uchun ularning hayoti davomida uzluksiz ta‘lim olish, mustaqil va individual ta‘lim olish traektoriyasini loyihalash imkoniyatini yaratish muhim sanaladi.

Tadqiqot mantig‘i paradigmal yondashuv asosida professional ta‘lim pedagoglarning kasbiy-pedagogik kompetentligini uzluksiz rivojlantirish modelni ishlab chiqishni talab qildi (5-rasmga qarang). Ishlab chiqilgan model ochiqlik, moslashuvchanlik, amaliy yo‘nalish xususiyatlariga ega hamda uning ishlashi umumiy va o‘ziga xos tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Model ilmiylik, yaxlitlik, izchillik, uzluksizlik tamoyillariga, hayot davomida ta‘lim olish, uzluksiz



5-rasm. Paradigmalar yondashuv asosida professional ta'lim pedagoglarning kasbiy-pedagogik kompetentligini uzluksiz rivojlantirish modeli

ta'lim olish konsepsiyasiga asoslanadi. Modellashtirish jarayonining umumdidaktik tavsifi metodologik yondashuvlar bayonini o'z ichiga oladi. Yondashuv deganda, tadqiq qilinayotgan jarayonni modellashtirishning yo'nalishi, tayanchini aniqlaydigan nazariyaning asosiy qoidasi tushunilib, modelni loyihalashning metodologik asosi sifatida kompetentli, tizimli, shaxsiy-faoliyatli va andragogik, evtagogik yondashuvlar ishtirok etadi. Noan'anaviy yoki evtagogika tamoyillari malaka oshirishning o'quv-uslubiy ta'minoti an'anaviy malaka oshirish o'quv-uslubiy ta'minot xususiyatlaridan interfaollikni ta'minlashi, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi, mustaqil ishlashga yo'naltirilganligi va boshqa xususiyatlari bilan sezilarli darajada farq qiladi.


Paradigmalar yondashuv asosida professional ta'lim pedagoglarining kasbiy-pedagogik kompetentligini uzluksiz rivojlantirish modeli – bu pedagogning kasbiy faoliyati davomida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarning muvaffaqiyatli hal etilishini ta'minlovchi uzluksiz ta'lim olishni rasmiy va norasmiy, informal shaklini tatbiqi, rasmiy va norasmiy, informal ta'limda qo'llaniladigan ta'lim shakl, metod va vositalari, ta'limni raqamli transformasiyasi jarayonidagi o'zgaruvchan kasbiy-pedagogik kompetentlik tarkibi (Soft skills, Hard skills, Self skills), kasbiy-pedagogik kompetentlik ko'rsatkichlari, baholash mezonlari, darajalari va natijalarni aks ettiruvchi modeldir. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan modelning mazmuni bevosita maqsad, metodologiya, mazmun, protsess, diagnostika bloklari asoslariga qurilgan bo'lib, pedagogning uzluksiz ta'lim olish imkoniyatlarini o'z ichiga oladi. Tavsifiya etilayotgan modelni amalga oshirish maqsadida rasmiy va norasmiy ta'lim integrasiyasi orqali pedagog kadrlarni kasbiy-pedagogik kompetentligini uzluksiz rivojlantirish metodikasi ishlab chiqildi. Taklif etilayotgan model va ishlab chiqilgan metodika malaka oshirish jarayonini jozibadorligini va variativligini ta'minlashga, ehtiyojga asoslangan malaka oshirish ta'limini tashkil etishga, uzluksiz kasbiy rivojlanishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“Professional ta'lim pedagog kadrlarining kasbiy-pedagogik kompetentligini uzluksiz rivojlantirish metodikasi”** deb nomlangan uchinchi bobida XXI asrda ta'limni raqamli transformasiyasida pedagogning kasbiy funksiyalarini o'zgarishi, professional ta'limda raqamli ta'lim texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari, **“SMART DIDACTICS”** – aqlli didaktikaning uzluksiz ta'lim olishdagi imkoniyatlari asoslab berilgan, shuningdek, professional ta'lim pedagoglarining kasbiy standarti tarkibiga raqamli kompetensiyalarini kiritish masalalari o'rganilib, raqamlashtirilgan ta'limda pedagogning axborot kompetentligi tuzilmasi ishlab chiqilgan, pedagogning raqamli kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari asoslab berilgan, shuningdek, professional ta'limda uzluksiz malaka oshirishda ehtiyojga asoslangan kurslar va qisqa muddatli kurslarni tashkil etish metodikasi, qisqa muddatli kurslarni ishlab chiqish talablari, rasmiy va norasmiy ta'lim integrasiyasida andragogika va evtagogikani o'qitish texnologiyalari tizimlashtirilgan. Raqamli texnologiyalar zamonaviy ta'limda kadrlarni maqsadli tayyorlashni amalga oshirish imkonini beruvchi smart-didaktika imkoniyatlaridek muhim yo'nalishni belgilashga imkoniyaratadi. Raqamli texnologiyalar resursidan foydalanishga asoslangan oliy va kasbiy ta'limni rivojlantirish mutaxassislarni tayyorlashda ijtimoiy sheriklar o'zaro ta'sirining mazkur jihatini belgilash imkonini beradi. Ya'ni samarador **“smart-didaktika”** kasbiy faoliyatning innovasion sohasida

blokcheyn texnologiyasi vositasida o‘z iste‘dodini ro‘yobga chiqara oladigan shaxsni shakllantirishga qaratilishi kerak.

Pedagogning kasbiy funksiyalariga qo‘yilayotgan bunday yuqori talablar rasmiy malaka oshirish shakli bilan birgalikda norasmiy malaka oshirish shakllarini ham joriy qilishga bo‘lgan talabni oshiradi. Xorijiy tajribalarga ko‘ra, malaka oshirish jarayonlarining yetakchi shakllari sifatida ehtiyojga asoslangan ekstremal kurslar, qisqa muddatli seminarlar, treninglar va vebinarlarni tashkil etish hamda mustaqil tarzda bilim olishning ahamiyati yuqoriligini e‘tirof etgan holda, tadqiqotimizda turli shakldagi malaka oshirish kurslarini joriy etish o‘rganilayotgan muammoni hal qilishning eng samarali shakli ekanligi aniqlandi. Professional ta‘limda uzluksiz malaka oshirish va qayta tayyorlashdan ishdan to‘liq ajralgan holda o‘tish deyarli mumkin emas, chunki bu ta‘lim jarayoniga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. 3-5 yilda rejalashtirilgan rasmiy malaka oshirishning ta‘lim chegaralari ta‘limning zamonaviy sifatiga erishishga yetarli emas. Shu sababli uzluksiz malaka oshirish uchun rasmiy va norasmiy ta‘lim usullari, shakllarining integratsiyasiga ehtiyoj tug‘ildi. “Norasmiy ta‘lim” asosiy professional ta‘lim, treninglar va seminarlardan tashqari qo‘shimcha kurslarni tashkil etish dasturlarini ishlab chiqish bilan bog‘liq.

Hozirgi vaqtda “norasmiy ta‘lim” tushunchasining aniq talqini hali ham mavjud emas va ko‘plab mualliflar uni turlicha izohlaydilar. Biz YUNESKOning “Savodxonlik va norasmiy ta‘lim” dasturida berilgan ta‘rifga asoslanganicha, quyidagicha talqin qildik: “norasmiy ta‘lim” – ta‘lim olishning har qanday tashkillashtirilgan va tizimli faoliyatini anglatadi. Norasmiy ta‘lim “ehtiyojlarga asoslangan ta‘lim”, “amaliyotga yo‘naltirilgan”, “moslashuvchan jadval va hududiy bog‘liqlikning yo‘qligi” tamoyillariga asoslangan rasmiy ta‘lim tizimlarining bir qismidir. Malaka oshirish tizimida kattalarni o‘qitishda norasmiy ta‘lim kasbiy ehtiyojlarga, jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlarga, shu jumladan, professional ta‘lim talablariga javob beradigan ijtimoiy, dinamik, ochiq, o‘zgaruvchan, mobil tizim, deb hisoblaymiz. Norasmiy ta‘lim – bu mustaqil va rasmiy ta‘limni to‘ldiruvchi, turli funksiyalarni (o‘z-o‘zini anglash, kompensatsion, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, tuzatuvchi, ijtimoiy va va boshqalar). Rasmiy ta‘limdan farqli o‘laroq, u tashkiliy jihatdan erkinroq hisoblanadi (6-rasmga qarang).




6-rasm. Kasbiy-pedagogik kompetentlilikni uzluksiz rivojlantirish shakllari

Ta'lim paradigmalarini o'zgaruvchan hozirgi bosqichda norasmiy ta'lim ham doim yangilanib boryapti. Shuningdek, norasmiy ta'lim, kasbiy yo'naltirilgan umumiy madaniy ta'lim, qo'shimcha ta'lim, ta'limning ajralmas qismi, ta'lim, tarbiyaviy ta'lim sifatida qaralmoqda.

Norasmiy ta'lim didaktikasi kattalar xususiyatlarini, ta'lim usullari, shakllari, texnologiyalarini tanlashda ushbu didaktikaning asosiy tushunchasi ta'lim oluvchining tajribasi, shu jumladan, muloqot tajribasini hisobga olish imkonini beradi. Norasmiy ta'lim didaktikasi shundan iboratki, uni tashkil qilishda ta'limning eng samarali texnologiyalari va shakllari amaliy mashg'ulotlarga, aniq ishlab chiqarish vazifalari va muammolarini hal qilishga asoslanadi, kattalar olingan bilimlarni o'zlari qo'llashlari kerak, shunda bu bilimlar ko'nikma va qobiliyatlarga aylanadi.

Raqamli ta'lim kontentlaridan mohirona foydalanish pedagoglarga o'z kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishda zaruriy materiallarni to'plash bilan birgalikda, pedagogning kasbiy muhitda raqobatbardoshligini oshiradi, Internet va jahon ommaviy axborot vositalaridagi ma'lumotlar bilan ishlashda pedagogning mediasavodxonlik darajasini hamda individual rivojlanish traektoriyasini loyihalay olish malakasini belgilaydi (7-rasmga qarang). Individual rivojlanish dasturi pedagogning norasmiy yoki informal shakldagi harakatlar dasturidir. Bu pedagogning kasbiy rivojlanishidagi rejalari va ehtiyojni asosida bevosita pedagogning o'zi tomonidan ishlab chiqiladigan dastur hisoblanadi. Shuningdek, mazkur dastur kasbiy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirishning individual yo'nalishi, ijodiy amalga oshirishning shaxsiy usulidir.

Pedagogning individual rivojlanish dasturi: o'zgaruvchan o'quv rejalari va ta'lim dasturlari, kasbiy standart talablari asosida individual ta'lim yo'nalishini belgilash; maxsus pedagogik texnologiyalar; malaka oshirish kurslarida malaka oshirish; tajribani uslubiy jihatdan umumlashtirish; seminarlar va ochiq darslarda qatnashish; mahorat darslarini o'rganish; ijodiy guruhlarini yaratish; ommaviy axborot vositalari, nashrlar, teleko'rsatuvlarda ishtirok etish; turli kasbiy mahorat musobaqalarida qatnashish, o'z-o'zini tarbiyalash va rivojlantirishni o'z ichiga oladi.



7-rasm. Individual rivojlanish traektoriyasini loyihalash bosqichlari

Dunyo tajribalariga ko'ra XXI asrda raqamli ta'lim transformatsiyasida ochiq va yopiq kurslarni tashkil etish malaka oshirish va kasbiy rivojlanishda muhim omil

xisoblanadi. Norasmiy ta'limda ehtiyojga asoslangan qisqa muddatli kurslarni tashkil etishga qo'yiladigan talablarni shakllantirish va uni o'tkazish metodikasini yaratish muhim sanaladi. Tadqiqotni olib borishda biz tomonimizdan qisqa muddatli kurslarni loyihalash bosqichlari, qo'yiladigan talablar, kurs natijasini baholash masalalari yoritib berildi. Qisqa muddatli kurslarni tashkil etishda uning didaktik ta'minotiga kurs dasturi, o'quv qo'llanma, o'qitish materiallari, topshiriq va test varaqalari kiradi. Qisqa muddatli kurslarni yaratishda metodlarni aniq tanlash va qisqa muddatda maqsadga erisha olish nihoyatda murakkab, bunda kurs yaratuvchilari va kursni olib boruvchi trenerlardan katta mahorat talab etiladi. Ehtiyojga asoslangan kurslarni ishlab chiqish talablarini aniqlash natijasida biz tomonimizdan "Pedagog kadrlarning kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish" kursi dasturi va didaktik ta'minoti ishlab chiqildi.

Norasmiy ta'limda korporativ ta'limga ehtiyoj tug'iladi. Korporativ ta'lim kattalar uchun uzluksiz ta'limning eng muhim quyi tizimlaridan biri sifatida iqtisodiyotning real sektoridagi o'zgarishlar, ishlab chiqarish bilan chambarchas bog'liq. Norasmiy va informal ta'lim formatidagi korporativ ta'lim – bu ta'lim tashkilotining o'zi tomonidan boshlangan, tizimlashtirilgan, boshqariladigan va nazorat qilinadigan rasmiy va norasmiy ta'lim jarayonlari to'plami hisoblanadi.

Psixologiya nazariyasi va amaliyoti shaxsiy fazilatlarining, ya'ni "Soft" kompetensiyalarni rivojlanishi, inson psixikasidagi eng samarali o'zgarishlar individual faoliyatda emas, balki guruhning o'zaro ta'sirida sodir bo'lishini ta'kidlaydi. Bunda korporativ ta'limning quyidagi xususiyatlarini sanab o'tish lozim:

inson resurslarini uzluksiz rivojlantirishga e'tibor qaratish;

ta'lim va o'z-o'zini tarbiyalashning o'zaro bog'liqligi;

ta'lim oluvchilarning hayotiy va kasbiy tajribasini inobatga olgan holda o'qitish.

Professional ta'lim muassasalarining o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari, ishlab chiqarish ta'limini tashkil etish bo'yicha direktor o'rinbosarlari aynan pedagoglarni kasbiy rivojlantirishga sharoit yaratuvchi rahbar hisoblanadilar. Shu bois, ularda uzluksiz kasbiy rivojlanishning zaruriyati va uni amalga oshirishning didaktik imkoniyatlari to'g'risida bilimlar shakllangan bo'lishi lozim.

Tajriba-sinov ishlaring birinchi bosqichidagi tahlillar shuni ko'rsatdiki, malaka oshirish kurslari bo'yicha o'quv rejaga "O'quv-me'yoriy hujjatlar", "Ta'limni tashkil etish", "Ta'lim menejmenti va marketingi", "Ta'limda innovatsion muhit", "Ta'lim sifati", "Boshqaruv psixologiyasi" modullari kiritilgan. Biroq ushbu modullar mazmuni asosan boshqaruv jarayonini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, professional ta'limda kompetensiyaviy yondashuv, kompetensiyalarning turlari, shaxsning individual rivojlanish dasturi, hayot davomida ta'lim olish prinsiplari e'tiborga olinmagan.

Shu bois, biz tomonimizdan rasmiy malaka oshirish kurslari tinglovchilariga hayot davomida ta'lim olish prinsiplarini o'rganishga, o'z-o'zini rivojlantirish, uzluksiz kasbiy rivojlanishga qaratilgan "Boshqaruv kadrlarning kasbiy kompetensiyalari, ularni baholash va uzluksiz rivojlantirish", "Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish", "Rahbarning "Soft skills" kompetensiyalarini rivojlantirish" o'quv modullari bo'yicha o'quv dasturlari mazmuni ishlab chiqildi. Mazkur modullar tinglovchilarda kasbiy-pedagogik kompetentlikni uzluksiz rivojlantirishning ahamiyatini ochib berish bilan birga, uzluksiz rivojlanishning shakllari, metodlari bo'yicha ham bilimlarni

takomillashtirish masalalarini qamrab olgan.

Rasmiy malaka oshirish shaklida “Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish”, “Boshqaruv kadrlarning kasbiy kompetensiyalari, ularni baholash va uzluksiz rivojlantirish”, “Rahbarning “soft skills” kompetensiyalarini rivojlantirish”, “O‘qituvchining pedagogik kompetentligi” modullari bo‘yicha mashg‘ulotlarni o‘tkazishda biz “**EduScrum**” metodidan foydalandik. EduScrum tinglovchilarni ta’lim jarayoniga jalb qilish va kasbiy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan o‘qitish metodidir. EduScrum metodiga asoslangan mashg‘ulot quyidagicha tashkil etiladi: o‘qituvchi kerakli nazariyani beradi, tinglovchilar jamoalar tuzadilar va ma’lum vaqt ichida o‘rganish uchun loyihalarini tanlaydilar. Bu bosqichda andragog murabbiy va ekspert vazifasini bajaradi.

“EduScrum” metodi “soft skills” va “selt skills” kompetensiyalarini bir vaqtning o‘zida rivojlantirishga xizmat qiladi:

jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Jamoa bilan ishlash – maxsus soft ko‘nikmalarni talab qiladi;

yangi bilimlarni o‘rganishga undaydi. Tinglovchilar nazariyani yodlabgina qolmay, balki uning zarurligini tushunadilar, uni turli vaziyatlarda qo‘llashni biladilar va bilimlarni egallashga ongli ravishda yondashadilar.

Rejalashtirish va qoidalarga rioya qilish, mustaqillikni, motivatsiyani rivojlantiradi. Ta’lim oluvchilarni tanqidiy fikrlashga, o‘z harakatlarini va ularning samaradorligini baholashga o‘rgatadi. EduScrum muloqotga ko‘nikmalarini rivojlanishiga, boshqalarni eshitish va tinglashga, bir-birlari bilan muzokara qilishga o‘rgatadi.

Dissertatsiyaning “**Tajriba-sinov ishlari natijalari va tahlili**”, deb nomlangan to‘rtinchi bobida tajriba-sinov ishlaring olib borilish va tajriba-sinov ishlari natijalari yoritilgan.

Tajriba-sinov ishlarining maqsadi professional ta’lim tizimi pedagoglarining kasbiy-pedagogik kompetentligini uzluksiz rivojlantirish modelini amalga oshirishda pedagogik shart-sharoitlarning yetarliligi hamda rasmiy ta’limda kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqilgan metodika, norasmiy ta’limda “Pedagog kadrlarning kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish” kursi va uning samaradorligi darajasini aniqlashdan iborat bo‘ldi.

Tajriba-sinov ishlari 2018-2022 yillarda Pedagogik innovatsiyalar, professional ta’lim boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutida o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari va ishlab chiqarish ta’limi bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari guruhlarida “Boshqaruv kadrlarning kasbiy kompetensiyalari, ularni baholash va uzluksiz rivojlantirish”, “Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish”, “Rahbarning “soft skills” kompetensiyalarini rivojlantirish” moduli bo‘yicha hamda FarDU, BuxDU malaka oshirish tarmoq markazlarida pedagoglarning malakasini oshirish jarayonida “O‘qituvchining pedagogik kompetentligi” moduli doirasida olib borildi. Shuningdek, professional ta’lim muassasalari pedagoglari uchun ishlab chiqilgan “Pedagog kadrlarning kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish” kursi doirasida o‘tkazildi. Mazkur kursda Toshkent pedagogika kolleji, Xo‘jayli pedagogika kolleji, Taxiatosh pedagogika kolleji, Chinboy pedagogika kolleji, Beruniy pedagogika kolleji, Zomin tumani 2-son kasb-hunar maktabi, Paxtakor sanoat texnikumi pedagoglari ishtirok

etdilar. Tajriba-sinov ishlarida jami 656 nafar respondentlar ishtirok etdilar. Professional ta'lim tizimi pedagoglarida kasbiy-pedagogik kompetentlikning rivojlanganlik darajalarini aniqlashda 1-jadvalda berilgan mezon va darajalardan foydalanildi.

1-jadval


Pedagoglarning kasbiy-pedagogik kompetentligini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

	Motivatsion-qadriyatli	Intellectual-refleksiv	Kasbiy faoliyatda o'z-o'zini rivojlantirish
1	2	3	4
Yuqori	kasbga nisbatan qadriyatli munosabatning shakllanganligi; doimiy kasbiy rivojlanish zaruratini anglash; pedagogik faoliyatida doimiy ravishda shaxsiy tashabbuskorlikni namoyish etadi; kommunikativlik ko'nikmalarni egallashga bo'lgan qadriyatli munosabat	o'zining kasbiy faoliyatini har tomonlama tahlil qiladi; o'zining kasbiy tajribasini umumiy jihatdan tahlil qiladi; kasbiy faoliyatdagi muammolarni tahlil qiladi va ularni ahamiyatlilik darajasiga qarab ajratadi; kasbiy faoliyatda o'zini doimiy rivojlantirish strategiyasini belgilaydi va to'ldirib boradi	o'zini kasbiy rivojlantirish dasturi maqsadini qanday aniqlashni biladi; kasbiy rivojlanish dasturining vazifalari va mazmunini qanday aniqlashni biladi; kasbiy rivojlanish bosqichlarini ajratadi va oldindan bashorat qilishni biladi; o'z-o'zini nazorat qilish va baholashda faoliyat turidagi ta'lim texnologiyalarining zamonaviy vositalarini tizimli ravishda qo'llaydi; o'z-o'zini rivojlantirish, boshqarish uchun maqbul sharoitlarni yaratadi; loyihlash faoliyatiga ega
O'rta	kasbga nisbatan bo'lgan qadriyatli munosabati noaniq tarzda ifodalanadi; kasbiy faoliyatni doimiy ravishda rivojlantirishga bo'lgan zarurat doimiy kuzatilmaydi; shaxsiy tashabbuskorlik doimiy kuzatilmaydi; kommunikativlik ko'nikmalarini egallashga bo'lgan qadriyatli munosabat har doim ham o'z ifodasini topmaydi	o'zining kasbiy xulq-atvorini qisman tahlil qiladi; kasbiy faoliyatdagi tajribasini qisman tahlil qiladi; kasbiy faoliyatdagi muammolarni tahlil qiladi va ularning ahamiyatlilik darajasini aniqlash qobiliyati yetarlicha rivojlanmagan; kasbiy faoliyatda o'zini doimiy rivojlantirish strategiyasini har doim ham aniq belgilamaydi va to'ldirib bormaydi	o'zini kasbiy rivojlantirish dasturi maqsadini aniq belgilay olmaydi; kasbiy rivojlanish dasturining vazifalari va mazmunini aniq belgilay olmaydi; kasbiy rivojlanish bosqichlarini ajratadi ammo oldindan bashorat qilishni bilmaydi; o'z-o'zini nazorat qilish va baholashda faoliyat turidagi ta'lim texnologiyalarining zamonaviy vositalarini tizimli ravishda qo'llay olmaydi; o'z-o'zini rivojlantirish, boshqarish uchun har doim ham maqbul sharoitlarni yarata olmaydi; loyihalash faoliyatini tizimli ravishda olib bormaydi
Past	kasbga nisbatan bo'lgan qadriyatli munosablar ifoda etilmaydi; kasbiy faoliyatni doimiy ravishda rivojlantirishga bo'lgan zarurat kuzatilmaydi; shaxsiy tashabbuskorlik kuzatilmaydi; kommunikativlik ko'nikmalarni egallashga bo'lgan qadriyatli munosabat kuzatilmaydi	o'zining kasbiy xulq-atvorini past darajada (qisman) ham tahlil qilmaydi; kasbiy faoliyatdagi tajribasini past darajada (qisman) ham tahlil qilmaydi; kasbiy faoliyatdagi muammolarini va ularning ahamiyatini aniqlash qobiliyatini namoyish etmaydi; o'zining doimiy kasbiy rivojlanish strategiyasini belgilamaydi	o'zini kasbiy rivojlantirish dasturi maqsadini aniqlay olmaydi; kasbiy rivojlanish dasturining vazifalari va mazmunini belgilay olmaydi; kasbiy rivojlanish bosqichlarini ajrata lmaydi va oldindan bashorat qilishni bilmaydi; o'z-o'zini nazorat qilish va baholashda faoliyat turidagi ta'lim texnologiyalarining zamonaviy vositalarini tizimli ravishda qo'llamaydi; o'z-o'zini rivojlantirish, boshqarish uchun har doim ham maqbul sharoitlarni yaratmaydi; loyihalash faoliyatini qo'llamaydi

Rasmiy ta'lim shaklida tajriba-sinov guruhlarida o'qitish ishlab chiqilgan metodik ta'minotni qo'llagan holda amalga oshirildi. Nazorat va tajriba-sinov guruhlaridagi tinglovchilarning kasbiy-pedagogik kompetentligi ko'rsatkichlari bo'yicha umumiy natijalar quyidagicha bo'ldi (2-jadval):

Tajriba-sinovning umumiy natijalari
(rasmiy ta'lim shaklida)

O'zlashtirish ko'rsatkichi	Tajriba-sinov guruhlari				Nazorat guruhlari			
	Tajriba boshida tinglovchi soni	%	Tajriba oxirida tinglovchi soni	%	Tajriba boshida tinglovchi soni	%	Tajriba oxirida tinglovchi soni	%
Yuqori	17	7,2	55	24,2	17	7,1	19	8,3
O'rta	65	27,7	121	53,3	72	30,3	70	30,7
Past	153	65,1	51	22,5	149	62,6	139	61
Jami	235	100%	227	100%	238	100%	228	100%



8-rasm. Tajriba-sinov ishlarining umumiy ko'rsatkichlari diagrammasi (foizda)

Tajriba-sinov natijalarining haqqoniyligini aniqlash uchun K.Pirson tomonidan taklif etilgan χ^2 (hii-kvadrat) mezonidan foydalandik.


Hisoblashlar natijalari asosida $\chi_{\text{amn}}^2 = 71,78$ ekanligi aniqlandi. Tadqiqotimizda erkinlik darajasi $\nu = S-1 = 3-1 = 2$ va bu erkinlik darajasi uchun χ^2 – muvofiqlik mezoni maxsus jadvali bo'yicha 95 % ishonchlilik oralig'i uchun $\chi_{\text{krit}}^2 = 5,99$, ayni vaqtda ishonchlilik oralig'i uchun $\chi_{\text{krit}}^2 = 9,21$ qiymatlar to'g'ri keladi.

Tadqiqotimiz natijalarini matematik-statistik usul yordamida qayta ishlash $\chi_{\text{emp}}^2 > \chi_{\text{krit}}^2 99\% > \chi_{\text{krit}}^2 95\%$ tengsizlik o'rinli ekanligini tasdiqlaydi. Bu esa erishilgan samaradorlik statistik jihatdan to'g'ri, deyishimizga asos bo'ldi.

**“Pedagog kadrlarning kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish”
kursi bo‘yicha olingan natijalar
(norasmiy ta’lim shaklida)**

Tajribadagi ishtirokchilar n-183	Yuqori				O‘rta				Past			
	Kurs boshida		Kurs oxirida		Kurs boshida		Kurs oxirida		Kurs boshida		Kurs oxirida	
	son	%	son	%	son	%	son	%	son	%	son	%
	12	6,6%	48	26,2%	34	18,6%	58	31,7%	137	74,9%	77	42,1%

Professional ta’lim muassasalari pedagoglari uchun ishlab chiqilgan “Pedagog kadrlarning kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish kursi doirasida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarida olingan natijalarni quyidagi javdalda keltiramiz (3-jadvalga qarang).



9-rasm. Tajriba-sinov ishlarining umumiy natijalari ko‘rsatkichlari diagrammasi (foizda)

“Pedagog kadrlarning kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish kursi doirasida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlaridan olingan natijalarni Student mezoni asosida tekshirilganda T statistik qiymat t kritik qiymatdan katta bo‘lgani uchun H_0 gipotezani qabul qilishga asos yo‘q, shuning uchun H_1 gipoteza qabul qilinadi. Bundan ko‘rinadiki, tajriba so‘ngidagi natijalar tajriba boshidagi natijalarga nisbatan samarali ekanligi statistik usullar orqali tasdiqlandi. Tajriba oxiridagi samaradorlik 15,8 foiz yuqoriligi isbotlandi.

XULOSALAR

Amalga oshirilgan ilmiy tahlillar, taqdim etilgan didaktik, metodik, ishlanmalar va tavsiyalarni umumlashtirgan hamda ularning samaradorlik darajasini baholagan holda quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Uzlüksiz ta’lim olish nazariyasini pedagogik hodisa va jarayonlarning barcha

majmuasi uchun qo'llash mumkin bo'lgan umumilmiy metodologiya, deb hisoblash mumkin. O'qitishning andragogik va evtagogik modeli uzluksiz pedagogik ta'lim tizimida turli xil ta'lim jarayonlarini tashkil qilishning didaktik asosini yaratadi.

Olib borilgan ilmiy izlanishlar globallashuv davrida ta'lim paradigmalarining yangilanishi uzluksiz malaka oshirish nazariyasi asosiga quyidagi umumiy g'oyalar qo'yilishi zarurati mavjudligini ko'rsatdi:

Pedagog – o'zining shaxsiy va kasbiy makonini mustaqil loyihalash va kengaytirish qobiliyatiga ega bo'lgan faol va o'z-o'zini rivojlantirayotgan shaxs. Bunda rivojlanish – qandaydir vaqt kesimida chegaralanmaydi havda ichki va tashqi mezonlar ta'siri ostida butun umr davomida amalga oshiriladi.

Pedagogning o'quv va kasbiy faoliyatini bog'lash asosida amalga oshiriladigan o'qitish, o'z-o'zini o'qitish va ta'lim muassasasidagi metodik ishlarning sintezi pedagoglarning ehtiyojlari va ta'lim tizimining ob'ektiv ehtiyojlarini hisobga oluvchi ta'lim dasturlarining shakllari va turlarining ochiqligi, o'zgaruvchanligi, variativligini ta'minlaydi.

2. Pedagog-kadrlarda nafaqat kasbiy bilimlarni, balki kasbiy-mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli bajarish bilan bog'liq bo'lgan kasbiy pedagogik kompetentligini uzluksiz rivojlantirish lozim. Bunda malaka oshirish tizimini takomillashuvi uzluksiz kasbiy rivojlanish talablari asosida kasbiy ehtiyojlarni tizimlashtirish, o'quv materiallarini SMART-didaktika prinsiplari asosida loyihalash, o'quv jarayoniga malaka oshirishning variativ shakllarini kiritish (mustaqil malaka oshirish, muqobil malaka oshirish, qisqa muddatli kurslar) asosida modellashtirish asosida amalga oshadi. Bunda pedagogika-andragogika-evtagogikaning umumiy va xususiy jihatlari ochib berildi hamda evtagogikaning taraqqiyot tendensiyalari, tushuncha apparati ilmiy-metodik jihatdan asoslandi.

3. Pedagogning kasbiy standartini joriy qilish uning funksiyalari va vazifalarini bajarishda terminologik aniqlik, huquqiy tartibga solishni uyg'unlashtirish, standartni qo'llash va uni professional jamoa tomonidan tushunish uchun shaffof mexanizmlarni ishlab chiqish va taqdim etish, shuningdek, amaliy faoliyatda standartdan foydalanishning aniq afzalliklarini bilish sharti bilan amalga oshirilishi mumkin. Pedagogning kasbiy standartlarini ishlab chiqish, o'zlashtirish va amalga oshirish murakkab jarayondir. Kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni tizimli klasterlash, faoliyat va shaxsiy sifat mezonlarining nazariy-metodologik jihatdan asoslash orqali pedagogning kasbiy standarti ishlab chiqildi. Pedagogning kasbiy standarti uzluksiz ta'lim olish mazmunining ehtiyojga ko'ra shakllantirish bilan individual ta'lim traektoriyasini loyihalash va bosqichma-bosqich amalga oshirish imkonini berdi.

4. Raqamli ta'lim transformasiyasi sharoitida uzluksiz ta'lim olish imkoniyatlarini o'rganish, zarur kompetensiyalarni klasterlash va malaka xususiyatlari to'ldirish, rasmiy va norasmiy malaka oshirish shakllarini intengrasiyalash, andragogik va evtagogik prinsiplarga xos ta'lim texnologiyalarini kiritish, kompetensiyalarni baholash mezonlarini belgilash va barcha bosqichlarni mantiqiy ketma-ketligini ta'minlash pedagogning kasbiy-pedagogik kompetentligini uzluksiz rivojlantirish modelini yaratish imkonini beradi.

5. Malaka oshirish jarayonida o'quv materiallarini loyihalashga qo'yiladigan talablarning umumiy tamoyillari (asoslilik, modullilik, maqsadlilik, kognitivlik,

ochiqlik, mobillik, moslashuvchanlik, yetarlilik, ko'rgazmalilik, interfaollik, natijaviylik) asosida pedagog kadrlarni kasbiy-pedagogik kompetentligini uzluksiz rivojlantirishga yo'naltirilgan qisqa muddatli kurslarini tashkil etish talablari va o'tkazish metodikasi ishlab chiqildi. Natijada "Pedagog kadrlarning kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish" kursi, kursning o'qitish materiallari ishlab chiqildi.

6. Tinglovchining malaka oshirish kurslaridan keyingi uzluksiz malaka oshirishni ta'minlash, kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha dolzarb masalalarga oid ma'lumotlarni o'z vaqtida pedagoglarga yetkazishda doimiy takomillashtirilib boriladigan "Pedagog kadrlarning kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish" kursi va o'qitish materiallari (videodarslar, taqdimotlar, ma'ruza materaillari, amaliy topshiriqlar to'plami) institutning my.moqt.uz paltformasiga joylashtirilgan. Bu, uzluksiz malaka oshirish jarayonlarini tashkil etilishi uchun asos bo'ladi.

7. Pedagog kadrlarning kasbiy-pedagogik kompetentligi o'zida mutaxassisning kasbiy faoliyatini vertikal ravishda integrallashgan majmuasi xususiyatini aks ettiradi va u kasbiy-pedagogik kompetensiyalar hamda malaka xususiyatlariga bo'linadi va ularning har biri bitta yoki bir necha xil mezonlar yordamida baholanishi mumkin. Professional ta'lim pedagoglarining kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini baholash professional ta'limni boshqarishda dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu vazifani muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirish uchun "Kompetensiyalarni baholash usullari va baholash materiallarini tayyorlash metodikasi" ishlab chiqildi.

8. Professional ta'lim muassasalari pedagoglarining kasbiy-pedagogik kompetentligini uzluksiz rivojlantirib borishga motivasiya berish imkonini beruvchi "Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish", "Boshqaruv kadrlarning kasbiy kompetensiyalari, ularni baholash va uzluksiz rivojlantirish", "Rahbarning "Soft skills" kompetensiyalarini rivojlantirish" modullari bo'yicha o'qitish materiallari, o'qitish metodikalari, kompetensiyani baholashda topshiriqlar to'plami ishlab chiqildi va tajriba-sinovdan o'tkazildi.

9. Professional ta'lim pedagog kadrlarining kasbiy-pedagogik kompetentligini uzluksiz rivojlantirish rasmiy va norasmiy malaka oshirish shakllarini intengrasiyalash, andragogik va evtagogik prinsiplarga xos ta'lim texnologiyalarini kiritish asosida amalga oshirildi. Bunda ta'lim shakllarining har birida maqsad va natija komponentlari qamrovida kasbiy-pedagogik kompetentlikni uzluksiz rivojlantirish metodikasi ishlab chiqildi. Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan (rasmiy va norasmiy malaka oshirish shakllarini intengrasiyalashga asoslangan) metodika nafaqat professional ta'limda, balki barcha yo'nalishlardagi malaka oshirish jarayonlari uchun samarali natija beradi.

10. Pedagogik kvalimetriya va kasbiy-pedagogik kompetentlikni baholash metodlari asosida tajriba-sinov ishi tajriba hamda nazorat guruhlarida qiyosiy tavsifga xos tarzda olib borildi. Professional ta'lim pedagog kadrlarini rasmiy va norasmiy ta'lim tizimida kasbiy faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish hamda pedagoglarning uzluksiz kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan "Pedagog kadrlarning kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish" kursi bo'yicha olib borilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarini Styudent metodi orqali matematik-statistik tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, kurs boshida va kurs

oxiridagi natijalar 15,8 foiz yuqoriligi isbotlandi. Bu esa biz tomonimizdan ishlab chiqilgan kurs va uni o'tkazish metodikasini samarali ekanligini isbotlaydi.

O'tkazilgan nazariy izlanishlar va eksperimental tadqiqotlar natijasida paradigmal yondashuv asosida professional ta'lim pedagoglarini kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha quyidagi metodik **tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Mamlakatimiz professional ta'lim tizimidagi islohotlar pedagog kadrlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, ya'ni ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashning variativ va alternativ malaka oshirish shakllarini joriy etish maqsadga muvofiq.

2. Professional ta'lim kadrlarini malakasini oshirish ta'limi mazmuni kasbiy standart talablarini, ularning kasbiy faoliyat xususiyatlarini e'tiborga olgan holda takomillashtirilishi hamda o'quv rejaga kiritilgan modullar mantiqiy jihatdan bir-birini to'ldirishi lozim.

3. Malaka oshirish ta'lim muassasasida uzluksiz ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish va pedagoglarni kasbiy-pedagogik faoliyatini doimiy monitoring qilib borishda portfolio tizimini yuritish talablarini takomillashtirish lozim.

4. Pedagogning kasbiy standarti ochiq hujjat bo'lib, zamonaviy ta'lim tendensiyalari va paradigmalari asosida doimiy takomillashtirilib, to'ldirib borilishi kerak.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Ped 48.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ
ИННОВАЦИЙ, ПЕРЕПОДГОТОВКИ И ПОВЫШЕНИИ
КВАЛИФИКАЦИИ РУКОВОДЯЩИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ
ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

**ИНСТИТУТ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИННОВАЦИЙ,
ПЕРЕПОДГОТОВКИ И ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ
РУКОВОДЯЩИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ
ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

КАРИМОВА НОЗИМА НУРМУХАМАНОВНА

**НЕПРЕРЫВНОЕ РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-
ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГОВ
ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
НА ОСНОВЕ ПАРАДИГМАЛЬНОГО ПОДХОДА**

13.00.05 – Теория и методика профессионального образования

АВТОРЕФЕРАТ

**диссертации на соискание ученой степени доктора наук (DSc)
по педагогическим наукам**

Тема диссертации доктора педагогических наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан за № B2023.1.DSc/Ped262.

Диссертация выполнена в Институте педагогических инноваций, переподготовки и повышения квалификации руководящих и педагогических кадров профессионального образования.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.ipitvet.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу (www.ziyo.net.uz).

Научный консультант:	Муслимов Нарзулла Алиханович доктор педагогических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Олимов Кахраман Танзилович доктор педагогических наук, профессор Марданов Шукурулло Кулдашевич доктор педагогических наук, профессор Маматов Дилмурод Нармуратович доктор педагогических наук (DSc), доцент
Ведущая организация:	Национальный исследовательский университет «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства»

Защита диссертации состоится «___» _____ 2023 года в _____ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Ped48.01 при Институте педагогических инноваций, переподготовки и повышении квалификации руководящих и педагогических кадров профессионального образования. (Адрес: 100095, город Ташкент, Алмазарский район, улица Чинбай-2, 96 дом). Тел.: (71) 227 19 24; E-mail: pedagogikinnovasiyalar@edu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Института педагогических инноваций, переподготовки и повышении квалификации руководящих и педагогических кадров профессионального образования (зарегистрирована за №____). (Адрес: 100095, город Ташкент, Алмазарский район, улица Чинбай-2, 96 дом). Тел.: (71) 227 19 24).

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2023 года.
(реестр протокола рассылки № _____ от _____ 2023 года).

Р.Х.Джураев
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.п.н., профессор, академик

С.Ю.Ашурова
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней,
к.п.н., профессор

Х.Ш.Кадиров
Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению ученых
степеней, д.п.н. (DSc), доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Современное образование требует повышения качества образования в соответствии с тенденциями, связанными с новыми способами восприятия и интерпретации мира, стремительным изменением культурных и социальных процессов, технологий, цифровизации, роботизации многих сфер жизни, внедрением новых парадигм в современные социальные условия, связанные с изменениями в системе образования. Развитие образования взрослых поддерживается Международной комиссией ЮНЕСКО по образованию основными принципами обучения на протяжении всей жизни, а именно «учиться понимать», «учиться делать», «учиться жить вместе». При этом возникает необходимость изменения образовательной политики и парадигмы, концепции, существующей до сих пор, направленной на новые подходы к обеспечению качества образования, создание новых образовательных программ, внедрение новых форм обучения. Поэтому ЮНЕСКО ввела формальные, неформальные и информальные формы образования, отражающие различные уровни организации образовательных услуг. Теперь необходимо педагогически обосновать использование дидактических возможностей формального, неформального и информального образования при проектировании траектории индивидуального образования в непрерывном обучении, обеспечении привлекательности образования в профессиональном развитии и повышении квалификации.

Одно из требований к качеству образования в глобальном масштабе породило необходимость совершенствования педагогики XXI века на основе новых парадигм и цифровой трансформации образования. Глубокие профессиональные знания, навыки их эффективного использования, личная инициатива, творчество, самостоятельность всегда отличали работу педагога, а педагог XXI века нуждается в непрерывном образовании, самообразовании и самосовершенствовании, должен обладать способностью к развитию и совершенствованию. В Финляндии Организация образования взрослых и во Франции концепция «валидации знаний, полученных на основе опыта» (Validation des Aquis de l'Expérience (VAE)) создана в результате нормативно-правовой базы неформальных и информальное обучение. В Германии введены «Weiterbildungspass» (Паспорт непрерывного образования) и «Lernkultur Kompetenzentwicklung» (Образовательная культура в развитии компетенций), в России поддерживается идея «Lifelong Learning» (обучение на протяжении всей жизни), которая включает в себя дополнительные учебные курсы, применяемые к программам дополнительного образования. Необходимость проведения исследований по совершенствованию непрерывного профессионального развития педагогических кадров в сфере профессионального образования обусловлена потребностью общества в специалистах, обладающих профессиональной компетентностью (социальный заказ общества), возникшими социально-педагогическими основаниями смены парадигм в педагогике XXI века, в основе которой имеется наличие постоянно меняющегося комплекса профессиональных стандартов, необходимость инновационных изменений

дидактики в педагогике XXI века, недостаточная развитость этого направления в педагогической теории и практике.

В нашей стране расширяются организационно-педагогические условия и информационно-методические возможности подготовки педагогов к новому профессиональному образованию. Также на основе принципа «Обучение на протяжении всей жизни» уделялось внимание образовательным программам непрерывного совершенствования педагогических кадров, организации образовательного процесса, исходя из цели, задач, содержания образования, переподготовке и непрерывному совершенствованию педагогических кадров к вопросам постоянного обновления на основе подходов¹. С этой точки зрения актуально совершенствование дидактических возможностей использования формальных и неформальных форм обучения и учебно-методического обеспечения на основе парадигмальных подходов в непрерывном развитии профессионально-педагогической компетентности педагогов профессионального образования.

Диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, определенных в Законе Республики Узбекистан № ЗРУ-637 «Об образовании» от 23 сентября 2020 года, Указах Президента Республики Узбекистан № УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года, Постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-5812 «О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию системы профессионального образования» от 6 сентября 2019 года, Постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан № 287 «О мерах по организации деятельности национальной системы профессиональных навыков, знаний и умений в Республике Узбекистан» от 15 мая 2020 года и № 106 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы управления профессиональными образовательными учреждениями, а также переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров» от 26 февраля 2021 года, а также других нормативных актах, связанных с данной деятельностью.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления науки и технологий республики: I. «Пути формирования и реализации системы инновационных идей при социальном, правовом, экономическом, духовно-нравственном и культурном развитии информационного общества и демократического государства».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации².

¹ Постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан № 106 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы управления профессиональными образовательными учреждениями, а также переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров» от 26 февраля 2021 года. <https://lex.uz/docs/-5309472>

² Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации: <https://www.ox.ac.uk>; <https://london.ac.uk>; <https://www.utexas.edu>; Chartered and Recognized by the Government of NWFP and Government of Sindh <http://www.preston.edu.pk>; University of Munich, Ludwig Maximilians Universität München https://www.unipage.net/ru/university_of_munich; The journal is registered in Germany <http://www.eesj.ru>; <https://smapse.ru/nagoya-university>; <http://ksue.org.ua/uk/pereyaslav-hmelniyskiy-gosudarstvennyiy-pedagogicheskiy-universitet-imeni-grigoriya-skovorodiyi>; <https://www.rsvpu.ru>; <https://www.kaznpu.kz/ru>.

Исследования, связанные с обучением на протяжении всей жизни, образованием взрослых и непрерывным профессиональным развитием учителей, проводятся ведущими мировыми научными центрами и образовательными учреждениями, в том числе Институтом обучения на протяжении всей жизни ЮНЕСКО, Европейской ассоциацией образования взрослых – ЕАЕА, Европейским обществом исследований в области Образование взрослых – ESREA, Азиатско-южно-тихоокеанской ассоциацией базового образования и образования взрослых – ASPBAE, Американской ассоциацией образования взрослых и непрерывного образования – AAACE (США), Международным обществом сравнительного образования взрослых – ISCAE, Университет Британской Колумбии (Канада), Институтом международного сотрудничества Ассоциации государственных университетов Германии (DVV International), Университетом Шеффилда (Англия), Университетом HELP (Малайзия), Академией профессионального развития и переподготовки (Россия), Институтом педагогических инноваций (Узбекистан).

В Англии, США, Финляндии, Германии и других развитых странах проводится масштабная работа по модернизации системы непрерывного повышения квалификации педагогов. Используемые в них современные педагогические технологии (тьюторская система обучения, специализация обучения, индивидуальное обучение, взаимное обучение или взаимные консультации, корпоративное обучение) делают педагогов профессионального образования интеллектуальными и обеспечивают психоэмоциональное развитие, творческий рост и всестороннее развитие личности. Из возможностей «открытого образования» большое внимание уделяется формированию творческой личности, умеющей работать в команде, активной в духовном и глобальном аспектах.

Сегодня в мире проводятся приоритетные исследования по следующим направлениям создания возможностей для непрерывного образования и непрерывного развития профессиональной компетентности: реализация современных парадигм развития профессиональной компетентности в непрерывном образовании, новые теоретические разработки на основе проектирования процесса непрерывного образования, связанные с развитием понятий об образовании; совершенствование моделей непрерывного развития профессиональной компетентности; совершенствование методики организации процесса непрерывного образования; совершенствование теории и технологии создания цифровых технологий обучения на основе новых научно-педагогических подходов; разработка методики оценки профессиональных компетенций; формирование профессиональной компетентности педагогов профессионального образования в формальном, неформальном, информальном образовании; за счет внедрения медиатехнологий и системы тьюторства разработан механизм развития профессиональной компетентности педагогов профессионального образования (Технология и методика профессионального образования), разработаны образовательные парадигмы, направленные на развитие

профессиональной компетентности педагогов профессионального образования и мастеров обучения (Россия).

Степень изученности проблемы. Процесс становления и развития профессионального образования, закономерности и тенденции, смена образовательных парадигм и проблемы формирования профессионально-педагогической компетентности изучили Р.Х.Джураев, У.И.Иноятгов, З.К.Исмаилова, Х.Ш.Кадыров, М.Б.Уразова, О.А.Куйсинов, Ш.Э.Курбанов, Н.А.Муслимов, Н.Н.Мусаева, К.Т.Олимов, А.Р.Хаджабаев, Д.О.Химматалиев, Б.Б.Эргашев³ и другие ученые-педагоги.

Описание, принципы, организационно-методические условия, педагогико-психологические аспекты развития системы профессионального образования в нашей республике исследовали М.У.Дехконова, К.А.Каримов, Д.А.Мустафоева, Б.С.Нуридинов, Ш.Х.Позилова, С.Ф.Раджабова, Д.М.Сайфуров, К.Т.Уматалиева, Н.Б.Хусанов, Ш.С.Шарипов, А.А.Шаюсупова, Г.В.Елдашева и др. В научных работах зарубежных ученых С.Г.Вершловского, О.О.Жебровской, И.А.Жук, Д.Ф.Ильясова⁴ и других этой проблеме уделено внимание.

Вопросы формирования, развития и диагностики профессионально-педагогической компетентности педагогов профессионального образования изучили ученые нашей республики М.Т.Мирсолиева, Н.А.Муслимов, Б.А.Назарова, М.Б.Уразова, Ш.С.Шарипов, О.А.Куйсинов, стран содружества Н.А.Гришина, Е.Ф.Зеер, И.А.Зимняя, Дж.Равен, В.А.Ситаров⁵ и другие.

Зарубежные ученые Б.М.Бим-Бад, Т.А.Василькова, С.И.Змеев,

